

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№5

2025
MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google

OPEN ACCESS



ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE


ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

*Elektron nashr,
512 sahifa, may, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Muhammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



JISMONIY SHAXSLAR SOLIQ MA'MURIYATCHILIGINING NAZARIY MASALALARI

Isroilov Boxodir Ibragimovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori.
iqtisodiyot fanlari doktori

Ibragimov Boburshox Boxodir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori v.b. iqtisodiyot fanlari doktori

Navruzova Farog'at Abdihamid qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Soliq ma'muriyatchiligini to'g'ri tashkil etish nafaqat davlat budjetini to'ldirishga, balki iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ham xizmat qiladi. Shu sababli, bozor iqtisodiyoti sharoitida rivojlangan davlatlar soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratadi. Mazkur masala mamlakatimizda ham hozirgi islohotlar davrida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va ko'plab ilmiy tadqiqotlar uchun obyekt bo'lib qolmoqda. Mualliflar tomonidan ushbu maqolada aholi bandligi, daromadlarining shakllanishi va soliqqa tortish tartiblarining o'zaro bog'liqligini tartibga solishda jismoniy shaxslar soliq ma'muriyatchiligi tizimining ahamiyati hamda mavjud muammolar o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida jismoniy shaxslar soliq ma'muriyatchiligi, aholi bandligi, daromadlarning shakllanishi va soliqqa tortish tizimini tartibga solishdagi nazariy qarashlar tahlil qilingan hamda ushbu masalaga doir mualliflik qarashlari bayon etilgan.

Kalit so'zlar: soliq ma'muriyatchiligi; soliqlar; aholi bandligi; aholi daromadlari; soliqqa tortish; davlat budjeti.

Abstract: Proper organization of tax administration serves not only to fill the state budget, but also to stable economic growth. For this reason, special attention is paid to improving tax administration in developed countries in a market economy. This issue also remains the subject of much scientific research in our country, as it is important in the era of current reforms. In the article, the authors explore the importance of the tax administration system of individuals in regulating employment, income generation and taxation procedures, as well as existing problems. As a result of the conducted research, an assessment of theoretical views on the regulation of tax administration, employment, income generation and the taxation system is given, as well as the author's views on this issue.

Keywords: tax administration; taxes; population employment; population income; taxation; state budget.

Аннотация: Правильная организация налогового администрирования служит не только наполнению государственного бюджета, но и стабильному росту экономики. По этой причине совершенствованию налогового администрирования в развитых странах в условиях рыночной экономики уделяется особое внимание. Данный вопрос также остается объектом многих научных исследований в нашей стране, поскольку он важен в эпоху нынешних реформ. В статье авторами исследуется важность системы налогового администрирования физических лиц в регулировании занятости населения, формирования доходов и процедур налогообложения, а также существующие проблемы. В результате проведенных исследований - дана оценка теоретических взглядов на регулирование налогового администрирования, занятости населения, формирование доходов и системы налогообложения, а также изложены взгляды автора на данный вопрос.

Ключевые слова: налоговое администрирование; налоги; занятость населения; доходы населения; налогообложение; государственный бюджет.

KIRISH

Iqtisodiyotlarning xalqaro darajadagi globallasuvi sharoitida rivojlangan mamlakatlarda soliq ma'muriyatchiligi soliq to'lovchilar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish va subyektlar manfaatlari uyg'unligini ta'minlashga qaratilmoqda. Fiskal islohotlarning asosiy tamoyillari soliq to'lovchilar o'rtasidagi hamkorlik va ularning huquqiy madaniyatini oshirishga yo'naltirilmoqda.

Tadqiqotlarimiz dunyodagi rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar tajribasi tahliliga asoslangan holda, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida izchil islohotlar amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatmoqda. Klassik iqtisodchilarning fikriga ko'ra, har qanday davlatning budget-soliq siyosati faqat xazinaga mablag' yig'ish bilan chegaralanmasligi, balki iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga ham xizmat qilishi lozim. Shu sababli, mamlakatimizda davlat budget-soliq siyosatining asosida soliq to'lovchilar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Soliq ma'muriyatchiligining optimallashtirilishi soliq to'lovchilarning norasmiy faoliyatini legallashtirishga xizmat qiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 8-iyundagi "Tadbirkorlik faoliyati va o'zini o'zi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4742-son¹ qarorida belgilangan "kontrakt tuzmasdan, kelishuv to'g'risidagi ommaviy taklifni (oferta) qabul qilish yoki elektron yozishmalar almashish yoxud hisob-kitob fakturalarini (invoys), shu jumladan elektron shaklda taqdim qilish yo'li bilan chet ellik jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish)" tartibi o'zini o'zi band qiluvchi shaxslar uchun soliq ma'muriyatchiligi soddalashtirishga xizmat qiladi [1].

Tadqiqotning maqsadi – davlat qarzini tartibga solish bo'yicha xalqaro tajribani tahlil qilish va uning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha qarashlarni bayon etishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun empirik tahlil, ekonometrik modellash va sifatli baholashni o'z ichiga olgan kompleks yondashuvlardan foydalaniladi. Davlat qarzining tuzilmasi va dinamikasini tahlil qilishda xalqaro institutlar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligi hamda Statistika agentligi ma'lumotlaridan foydalanildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ma'lumki, soliq ma'muriyatchiligi davlatchilikning shakllanishi bilan birga vujudga kelgan. Kishilik jamiyatining rivojlanib borishi bu tizimni takomillashtirish va aholining farovonligi yo'lida xizmat qiladigan usullarni izlab topishni zarur qilib qo'ygan. Shu sababli, ushbu masala ko'plab olimlar tadqiqotlarining obyektiga aylangan.

M.A. Troyanskaya [2] soliq ma'muriyatchiligi masalalarini tadqiq etar ekan, "ma'muriyatchilik" so'zining lug'aviy ma'nosi lotincha "administratio" — ya'ni boshqaruv, rahbarlik ma'nolarini bildirishini, byurokratik tarzda buyruq berishga asoslangan boshqaruvni anglatishini ta'kidlaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida esa "ma'muriyatchilik" so'zining ma'nosi "ma'muriy huquqni suiiste'mol qilish" tarzida talqin etilgan.

Fransuz klassik iqtisodchisi A. Fayol [3] "ma'muriyatchilik — bu oldindan ko'rish, tashkil qilish, farmoyish berish, rahbarlik qilish va nazorat qilish" deb hisoblaydi. Zamonaviy xorijiy atamalar lug'atlarida esa "ma'muriyatchilik" atamasi "boshqarish, byurokratik nazorat, farmoyish asosida boshqaruv" deb izohlanadi.

B. Isroilov va B. Ibragimov o'z tadqiqotlarida "ma'muriyatchilik — vakolatli organ tomonidan me'yoriy hujjatlar, tartib-qoidalar va rejalar hamda vakolat doirasidagi huquq va majburiyatlar asosida boshqaruv obyektlari, jamoa, soha yoki davlat tizimini boshqarish" deb ta'riflaydi [4].

Ushbu mualliflarning soliq ma'muriyatchiligi haqidagi ta'riflari ham atamaning mazmunini to'liq ochib beradi. Jumladan, ular "Soliq ma'muriyatchiligi — bu bozor munosabatlari sharoitida davlat budjeti daromad qismini shakllantirish va soliq to'lovchilarning o'z majburiyatlarini bajarishini

¹ <https://lex.uz/docs/-4849607>



ta'minlaydigan ma'muriy-huquqiy mexanizm" deb ta'riflaydi. Shuningdek, iqtisodiyotni tartibga soluvchi mexanizm sifatida soliq ma'muriyatchiligini samarali tashkil etish bozor iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlar soliq siyosatida muhim o'rin tutishi qayd etiladi. Institutsional yondashuvda soliq ma'muriyatchiligi — soliq munosabatlari, davlat siyosati, vakolatli organlar, soliq qonunchiligi ijrosi va uni nazorat qilish tizimlarini o'z ichiga olgan ko'p qirrali boshqaruv vositasi sifatida qaraladi.

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, barcha davlatlar iqtisodiyoti bozor munosabatlariga asoslangan bo'lishiga qaramay, ularning soliq ma'muriyatchiligi amaliyoti bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Fikrimizcha, soliq ma'muriyatchiligi barqaror, o'zgarmas shaklda qolishi kerak bo'lgan instrument emas. Aksincha, u har bir mamlakatda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonlar mazmuni va ehtiyojlariga mos holda uzluksiz takomillashtirib borilishi lozim.

Soliq ma'muriyatchiligi va uning davlat boshqaruvi tizimida qo'llanilishiga olimlar turlicha, professional nuqtayi nazardan yondashadi. Iqtisodchilar uni iqtisodiyotni tartibga soluvchi tashkiliy-moliyaviy instrument sifatida baholaydi, yuristlar esa — soliq munosabatlarini tartibga soluvchi ma'muriy-huquqiy mexanizm sifatida.

O.A. Nogina [5] soliq ma'muriyatchiligini "kam xarajat evaziga ko'p miqdordagi soliqlarni o'z vaqtida undirishga qaratilgan ma'muriy chora-tadbirlar majmuasi" sifatida talqin qiladi. Ya'ni, u soliq ma'muriyatchiligini faqat samarali fiskal tadbir sifatida ko'radi.

Fikrimizcha, soliq ma'muriyatchiligiga faqat fiskal vosita sifatida yondashish, uning boshqa muhim funksiyalarini inkor etadi. Masalan, sohibqiron Amir Temur o'z "Tuzuklar"ida soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini baholashda aholi daromadlarining shakllanish davri, faoliyatning rentabellik darajasi va daromad manbalarini ham hisobga olish zarurligini ta'kidlagan.

B. Isroilov va B. Ibragimov O.A. Noginaning soliq ma'muriyatchiligiga oid qarashlarini izohlar ekan, soliq qonunchiligi ijrosini ta'minlash faqat vakolatli organlarning harakati bilan emas, balki targ'ibot-tashviqot ishlari, qonunchilikdagi o'zgarishlarni soliq to'lovchilarga yetkazish, tushumlarni prognozlashtirish kabi mexanizmlarni ham qamrab olishi lozimligini ta'kidlaydi. Ularning fikriga ko'ra, bu keng qamrovli yondashuv soliq ma'muriyatchiligini samarali tizimga aylantiradi.

V.M. Fokin [6] soliq ma'muriyatchiligini "soliq-huquqiy munosabatlar bilan bog'liq jarayonlar va voqelik hamda ushbu huquqiy soliq munosabatlari ishtirokchilarining harakatlari" deb ta'riflaydi. Fikrimizcha, soliq ma'muriyatchiligiga faqat soliq-huquqiy munosabatlar subyektlari o'rtasidagi yuridik munosabatlar sifatida yondashish yetarli emas. Chunki bunday ta'rifda soliq ma'muriyatchiligining davlat daromadlarini shakllantirish, aholi daromadlari va iqtisodiyotni tartibga solishdagi o'rni, shuningdek, davlatning ijtimoiy funksiyalarini moliyalashtirish uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jamlashdagi roli inobatga olinmagan.

V. Fokin, shuningdek, "insofli soliq to'lovchilarni soliq majburiyatlarini bajarishga rag'batlantirish va ularni bajarmaganlarga moliyaviy-huquqiy javobgarlikni qo'llash bilan bog'liq chora-tadbirlar majmuasi soliq ma'muriyatchiligidir" deb hisoblaydi. Biroq, soliq ma'muriyatchiligi faqat soliq majburiyatlari bajarilishini ta'minlash yoki javobgarlikni qo'llash bilan cheklanmaydi. Olim tomonidan berilgan ta'rifda ushbu tizimning boshqa asosiy funksiyalari inobatga olinmagan.

S. Ribakov [7] soliq ma'muriyatchiligini "tarixiy tajriba, iqtisodiy fanlar va amaliyot yutuqlariga asoslangan holda soliq mexanizmining funksiyalari, ya'ni rejalashtirish, tartibga solish, nazorat, hisob-kitob, tahlil, hisobot va boshqa elementlarning bajarilishini ta'minlovchi huquqiy asoslar tizimi" sifatida tavsiflaydi. Bu ta'rif soliq ma'muriyatchiligining mazmunini nisbatan chuqurroq ochib beradi, biroq asosan huquqiy yondashuv bilan cheklanadi.

Ko'plab olimlar o'z qarashlarida soliq ma'muriyatchiligining budjet daromadlarini shakllantirish, tushumlarni manbalar bo'yicha prognozlash, soliq tizimini boshqarish va soliq munosabatlarini tartibga solishdagi funksiyalarini to'liq qamrab olmaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Jismoniy shaxslar bilan soliq munosabatlarini tartibga solish masalalarida soliq ma'muriyatchiligi yetarlicha o'rganilmagan. Shu sababli, mazkur yo'nalishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Biroq, tadqiqotlarimiz bu yo'nalishda iqtisodiyotning xufyona sektorini rivojlanishiga olib kelayotgan muammolarning ijobiy yechimlari to'liq shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarning



kelib chiqish sabablarini aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish maqsadida maqolada quyidagi savollar o'rganildi:

Milliy soliq tizimimizda soliq ma'muriyatchiligi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlari qanday shakllanmoqda?

Soliq tizimida olib borilayotgan islohotlar davlat va soliq to'lovchilar uchun teng manfaatlimi?

Aholining barcha qatlamlarini qo'llab-quvvatlashda soliq ma'muriyatchiligi mexanizmlarining o'rni qanday?

O'zbekistonda soliq ma'muriyatchiligi ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish nima uchun zarur?

Bu mexanizmlarni takomillashtirishning aniq usullari nimalardan iborat?

Tadqiqotlarimiz shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy adabiyotlarda soliq ma'muriyatchiligi asosiy vazifasi sifatida iqtisodiy va soliq munosabatlaridagi o'zgarishlarga tezkor reaksiya bildirish qobiliyati ham tilga olinadi.

Ba'zi olimlar soliq ma'muriyatchiligi funksiyalarini me'yoriy va tezkor, asosiy va yordamchi funksiyalar shaklida tasniflashni taklif etadi. Me'yoriy funksiyalar – qonun normalarining ijrosiga qaratilgan bo'lsa, tezkor funksiyalar – real soliq tushumlarini ta'minlash bilan bog'liq hisoblanadi. Bu guruh olimlari soliq ma'muriyatchiligi funksiyalarini uchga bo'ladi: soliq to'lovchilarni hisobga olish va hisobini yuritish, joriy soliq nazorati va soliq tekshiruvlari.

I.A. Gayrabekov [8] esa bu tasnifdan farqli ravishda, soliq ma'muriyatchiligi funksiyalarini to'rt guruhga bo'lishni taklif etadi.

B. Ibragimov [9] o'z tadqiqotlarida I.A. Gayrabekovning tasnifi kengroq qamrovga ega ekanligini tan olgan holda, unda soliq ma'muriyatchiligi funksiyalari o'zgaruvchan jamiyatda doimiy xarakterga ega bo'lishi kerakligi fikridan yiroqligini bildirgan. Uning fikricha, funksiyalar vakolatli organlar zimmasiga yuklangan vazifalarga qarab ko'payishi yoki kamayishi mumkin. Biz ham ushbu nuqtai nazarni qo'llab-quvvatlaymiz va soliq ma'muriyatchiligi soliq qonunchiligining ixtiyoriy va samarali ijrosiga xizmat qilishi zarur, deb hisoblaymiz.

Raqamli iqtisodiyotning kengayib borishi soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarini axborot texnologiyalari va sun'iy intellekt vositalari asosida optimallashtirish zarurligini taqozo etmoqda. Bu jarayonning har bir bo'g'ini — soliq to'lovchilarni identifikatsiyalash, deklaratsiyalarni qabul qilish, nazorat va tahlilni amalga oshirish — alohida dasturiy mahsullar asosida qurilishi kerak. Ularning o'zaro integratsiyasi esa soliq boshqaruvining yagona raqamli platformasida birlashtirilishi lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR


Soliq ma'muriyatchiligi amaliyotini raqamlashtirish soliq qonunchiligi buzilishi xavfini keskin kamaytiradi, uning samaradorligini oshiradi va soliq komplaens darajasini taxminan 100 foizga yetkazishi mumkin, degan qarashlar mavjud. Biz ushbu fikrga qisman qo'shilamiz. Mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi jarayonlarini axborot texnologiyalari orqali raqamlashtirish bo'yicha amalga oshirilgan amaliy ishlar natijasida hozirda soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslarga 27 ta, jismoniy shaxslarga 14 ta, yakka tartibdagi tadbirkorlarga 15 ta, o'zini o'zi band qilgan fuqarolarga esa 11 ta yo'nalishda interaktiv xizmatlar ko'rsatilmoqda.

Mazkur ko'rsatkichlar mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligi tizimini raqamlashtirish bo'yicha olib borilgan ishlar ko'lami yuqoriligini ko'rsatadi. Biroq biz ham B. Ibragimovning fikriga qo'shilamiz: ayrim sohalarning raqamlashtirilish darajasining ortib borishi avtomatik tarzda soliq ma'muriyatchiligi samaradorligi oshishiga olib keladi, degan xulosa to'liq asosli emas. Chunki soliq ma'muriyatchiligi faqat ma'muriy boshqaruvga bog'liq bo'lmay, kengroq iqtisodiy va ijtimoiy kontekstda qaralishi lozim.

Olimning o'z tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalar bildirilgan:

Soliq siyosatini belgilashda davlat o'z manfaatlarini maksimal darajada himoya qilishga intiladi, soliq to'lovchi esa o'z navbatida soliqlardan qochish usullarini izlaydi va ularni minimallashtirishga harakat qiladi;

Iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini raqamlashtirish jarayoni, soliq bilan bog'liq barcha operatsiyalarni hisobga olishni ta'minlashi, soliq ma'muriyatchiligi raqamlashtirish samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi;



Soliq ma'muriyatchiligi samaradorligini va uning iqtisodiy o'sishga xizmat qiladigan darajasini ta'minlash uchun raqamlashtirish darajasini tizimli ravishda oshirish maqsadga muvofiqdir.

Mamlakatimizda soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirish, uning shaffofligini oshirish, soliq munosabatlari bo'yicha manfaatdor vazirlik va idoralar bilan o'zaro hamkorlikni kuchaytirish bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlar belgilanmoqda:

Soliq siyosatini takomillashtirish va iqtisodiyotdagi xufyona aylanma hajmini kamaytirish;

Xizmat ko'rsatishga yo'naltirilgan soliq tizimini shakllantirish;

Soliq tavakkalchiliklarini baholash tizimini joriy etish va soliq hisobini takomillashtirish;

Soliq xizmati organlari faoliyatini isloh qilish;

Soliq idoralarida korrupsiyaga qarshi kurash mexanizmlarini kuchaytirish.

O'zbekiston Respublikasining soliqqa tortish va soliq munosabatlarini tartibga solish tizimi 33 yillik tarixga ega bo'lishiga qaramay, soliq tizimi samaradorligi hali ham past darajada qolmoqda. Bizning fikrimizcha, bunga asosiy sabab — soliq organlari bilan soliq to'lovchilar o'rtasida o'zaro ishonch va hamkorlik mexanizmlari yetarli darajada shakllanmaganidir. Shuningdek, soliq siyosatini shakllantirishda soliq to'lovchilarning manfaatlarini kamdan-kam hisobga olinadi, bu esa ularning soliq jarayonlarida passiv ishtirok etishiga sabab bo'lmoqda.

Soliq maslahatchilari institutsional tizimi faqat soliqlarni hisoblashga yo'naltirilgan bo'lib, qonunchilik jarayonlarida ularning ishtiroki sezilmaydi. Natijada soliq to'lovchilarning o'z iqtisodiy faoliyatini qonuniy asosda rivojlantirishga bo'lgan qiziqishlari beryoqlama bo'lib qolmoqda. Bu esa soliq ma'muriyatchiligini hozirgi davr iqtisodiy rivojlanishining xususiyatlariga mos tarzda chuqur isloh qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot doirasida yuqorida belgilangan savollarga javob izlash natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

Milliy soliq tizimining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida soliq ma'muriyatchiligining iqtisodiy mexanizmlari alohida ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, uning ijtimoiy mexanizmlari yetarli darajada aks ettirilmagan.

Soliq to'lovchilarning aksariyati amaldagi soliq tizimida ma'muriy mexanizmlarning tatbiqiga tanqidiy munosabatda.

Soliqqa oid qonunchilikning noaniqligi soliq to'lovchilarning soliqlarni to'lashga nisbatan intizomini susaytiradi.

Shu bois, jismoniy shaxslar bandligi, aholi daromadlarini shakllantirish va ularni soliqqa tortish, shuningdek fiskal instrumentlardan faqat budjet daromadini shakllantiruvchi vosita sifatida foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi, degan xulosaga kelamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 8 июндаги “Тадбиркорлик фаолияти ва ўзини ўзи банд қилишни давлат томонидан тартибга солишни соддалаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4742-сон қарори. <https://lex.uz/docs/7520315>.
2. Троянская М.А. Совершенствование налогового администрирования как резерва роста доходов бюджета // АНИ: экономика и управление, Т. 6. № 2(19), 2017. – С. 274-278
3. Административное право зарубежных стран. Под ред. А.Н. Козырина, М.А. Шатиной - М.: Спарк, 2003. – С. 214.
4. Isroilov B.I., Ibragimov B.B. “Soliq munosabatlari tizimini tartibga solish”. // Monografiya. – T.: TDIU, 2024. -173 b.
5. Ногина О. А. Налоговый контроль: вопросы теории. – СПб., 2002 (цит. по: Абрамчик Л. Я. Развитие налогового администрирования в Республике Беларусь // Налоговое администрирование: ежегодник–2007 / под общ. ред. С. В. Запольского, Д. М. Щекина. – М., 2008. – С. 74).
6. Фокин В. М. Правовые аспекты соотношения налогового администрирования с налоговым регулированием // Налоговое администрирование : ежегодник–2007 / под общ. ред. С. В. Запольского, Д. М. Щекина. – М., 2008. – С. 16.
7. Рыбакова С.В. Участие кредитных организаций в процессе налогового администрирования: вопросы теории // Банковское право. № 2, 2008.С. 44-47.



8. Гайрабеков И.А. Понятие и сущность налогового администрирования налогоплательщиков / И. А. Гайрабеков. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2020. — № 49 (339). — С. 86-89. — URL: <https://moluch.ru/archive/339/75954/>.
9. B.I. Ibragimov. Soliq ma'muriyatchiligi uslubiyotini takomillashtirish. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasi uchun tayyorlangan doktorlik dissertatsiyasi. 2024 y.